

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI

**MUHANDIS GEOLOGIK  
BASHORATLASH**

fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha

**USLUBIY QO'LLANMA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI,**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MUHANDIS GEOLOGIK  
BASHORATLASH**

fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha

**USLUBIY QO'LLANMA**

UDK. 524. 522

"Muhandis geologik bashoratlash" fanidan amaliy mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma. Tuzuvchilar: Adilov A.A., Gulamkadirova M.A. –T.: ToshDTU, 2017. 40 b.

Ushbu uslubiy qo'llanmada Muhandis geologik bashoratlash fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bajariladigan topshiriqlar, ularni bajarilish ketma-ketligi hamda, turli adabiyotlarda keltirilgan jadval ma'lumotlari haqida ma'lumot qiladi. Uslubiy qollanma "Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi magistrant – talabalari uchun mo'ljalangan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etiladi.

Taqrizchilar:

Qayumov A.D. -ToshDTU Muhandislik geologiyasi va konchilik ish fakulteti "Gidrogeologiya va geofizika" kafedrasi prof.

Raxmatullayev X.I. - UZR FA «Seysmologiya» instituti laboratoriya mudiri, g.m.f.n

## Kirish

Ushbu uslubiy qo'llanmada "Muhandis geologik bashoratlash" fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlarni bajarish haqidagi ma'lumotlar va ko'rsatmalar berilgan. Uslubiy qo'llanma 3 bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda qiya satxlar turg'unligini gorizontal kuchlar; grafo-analitik va G.A. Fisenko usullar bilan gidroststik, seysmik kuchlar ta'sirini hisobga olib aniqlashga, ikkinchi bo'limda less va lessimon tog' jinslaridagi cho'kish deformatsiyasi miqdorini ikki egri chiziqli va D.N. Kruglov hamda E.V.Qodirovning tezkor usullari bilan aniqlash, uchinchi bo'limda esa suv omborlari qirg'oqlarini qayta hosil bo'lishini G.S.Zolotarev va E.G.Kachugin usuli bilan bashoratlash masalalariga bag'ishlanadi.

## **1-amaliy mashg'ulot. Gorizontal kuchlar usuli bilan qiya sathlar turg'unligini baholash**

Vazn og'irligi, gidrostatik va gidrodinamik bosim, seysmik kuchlar ta'sirida qiya sathlarda tarqalgan tog' jinslariiing pastga qarab surilishiga surilma deyiladi.


Qurilish ishlarini olib borishda, xandaq devorlarini, foydali qazilma konlarini ochiq usulda kavlab olishda karer va razrezlarning devorlarida tarqalgan tog' jinslari turg'unligini aniqlash katta ahamiyatga ega bulib, bu ish N.N.Maslov, T.L.Fisenko, R.R.Chugaev va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan usullar asosida amalga oshirilishi mumkin.

**1 - topshiriq.** Ma'lum qiyalikka ega bo'lgan tog' yon bag'ridan avtomobil yo'li qurilishi mo'ljallanayotgan bo'lsin. Shu yo'lning qurilishi hamda undan foydalanish xavfsizligini ta'minlash uchun tog' yon bag'rida tarqalgan tog' jinslari turg'unligi baholansin, turg'un qiyalik burchagi qanday bulishi kerakligi aniqlansin.

Bu masalani hal qilish maqsadida I - jadvalda berilgan qiya sathning morfometrik tafsilotidan foydalaniladi. Masalan. N.N. Maslov tomonidan ishlab chiqilgan gorizontal kuchlar uslubidan foydalanish mumkin.

Qiya sath turg'unligini aniqlash maqsadida, birinchi galda satx qiyaligi va balandligidan foydalanib. qiya sathning 1:500 yoki 1:200 lik masshtabda topografik qirqimi chiziladi.

Keyin qiya sath qalinligi 1-2 m dan katta bo'lmagan (1 - rasm) gorizontal bloklarga bo'linadi. Har bir bo'lingan gorizontal bloklar uchun tog' jinsi ko'rsatgichlarining o'rtacha qiymati aniqlanadi.



1 - rasm. N.N.Maslov usuli bo'yicha qiya sathlar turg'unligini hisoblash chizmasi.

Tog' jinslari gorizontal bloklari uchun hisoblangan injener geologik ko'rsatgichlarning o'rtacha qiymatlari asosida tog' jinslarining tabiiy zo'riqqanlik holati aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$P_n = P_{n-1} + 0,1 \rho_{sn} (1 + 0,01W_n) h_n \text{ bunda:}$$

$P_n$ -gorizontal blokning kuchlanganlik holati yoki shu qatlamning unga ta'sir etayotgan bosim bilan birga og'irligi, kg/sm<sup>3</sup>.

$P_n$  - blokdan yuqorida turgan gorizontal bloklar og'irligi.

$\rho_{sn}$  - n - gorizontal blokni tashkil etgan tog' jinsi skletining zichligi, g/sm.

$W_n$  - n - gorizontal blokni tashkil etgan tog' jinsi tabiiy namligi, %.

$h_n$  - gorizontal blok qalinligi, m.

Masalan: 1 gorizontal blok uchun yuqoridagi ifoda quyidagicha yoziladi:

$$P_1 = 0,1\rho_{s_1}(1 + 0,01W_1)h_1$$

Ikkinchi gorizontal blok uchun:

$$P_2 = P_1 + 0,1\rho_{s_2}(1 + 0,01W_2)h_2$$


n gorizontal blok uchun esa:

$$P_n = P_{n-1} + 0,1\rho_{s_n}(1 + 0,01W_n)h_n$$


Hisoblash natijasida aniqlangan gravitatsion bosim va surilishga qarshiligi ko'rsatkichlari asosida har bir blokning surilish burchagi "Ψ"aniqlanadi.

Buning uchun har bir gorizontal blok uchun  $\tau = f(P)$  chizmasi chiziladi, bunda "φ" - tog' jinsi zarrachalari orasidagi ishqalanish burchagi va "C" tog' jinslarining o'zaro bog'lanish kuchidan foydalilanadi. Har bir gorizontal blokning surilish burchagini "Ψ" aniqlash uchun shu blok uchun chizilgan  $\tau = f(P)$  chizmasidan foydalilanadi. Buning uchun P qidan hisoblab topilgan  $P_n$  topiladi va "τ" qiga parallel chiziq t o'kaziladi. Bu chiziq  $\tau = f(P)$  chizig'i bilan birlashtiriladi, kesilgan nuqtasini koordinata turi boshi bilan birlashtiriladi. O'tkazilgan chiziqning P o'qi bilan hosil qilgan burchagi "Ψ" surilish burchagi deyiladi. (2 - rasm)

a)



б)



2 - rasm. Gorizontal bloklarning surilish burchagini aniqlash chizmalari

a) qumlar uchun, b) gil zarrachali tog' jinslari uchun

Surilish burchagining qiymati yana quyidagi ifoda orqali aniqlanishi mumkin:

$$\operatorname{tg} \psi_n = \frac{\tau_s}{P} \cdot \operatorname{tg} \varphi \frac{C}{P} .$$

Har bir gorizontal blokning surilish burchagi aniqlangandan so'ng eng pastki blokdan boshlab har bir blok uchun mos bo'lgan surilish burchagi chizmaga tushiriladi (1 - rasm) va qiya sathning umumiyligi surilish chizig'i hosil qilinadi. Surilish chizig'i bilan ajratilgan tog' jinslari vazn og'irligi hisoblanadi. Buning uchun qirqimda ajratilgan maydon yuzasi hisoblanadi. Quyidagi ifodadan foydalanib 1 metr kenglikdagi surilma og'irligi aniqlanadi:

$$G = V \cdot \rho_s (1 + 0,01w) \quad \text{bunda:}$$

$V$  - surilma xajmi,  $\text{sm}^3$ ,

$\rho_s$  - surilishi mumkin blgan tog' jinslari skleti zichligi o'rtacha qiymati -  $\text{g/sm}^3$ ,

$W$  - tog' jinsi namligining o'rtacha qiymati,

$G$  asosida esa  $N$  kuchni, ya'ni qiya sathni ushlab turuvchi va  $T$  qiya sathni surilishga olib keluvchi kuchlar miqdori aniqlanadi, ya'ni:

$$N = G \cdot \cos\alpha$$

$$T = G \cdot \sin\alpha$$

( $\alpha$  – sath qiyalik burchagi)

Aniqlangan ko'rsatkichlar qiya sath muvozanati holati ifodasiga qo'yilib, qiya sath turg'unligi ko'rsatkichi aniqlanadi:

$$\eta = \frac{\sum f \cdot N + CL}{\sum T}$$

bunda:

$\eta$  - qiya sath turg'unligi ko'rsatgichi

$f$  - ishqalanish kuchi ( $f = tg\varphi$ )

$C$  - tog' jinsi zarralarning o'zaro bog'lanish kuchi

$L$  - surilish chizig'i uzunligi


Agarda  $\eta$  ning miqdori  $> 1$  bo'lsa, qiya sath turg'un holatda bo'ladi,  $\eta = 1$ , qiya sath muvozanat holatida,  $\eta < 1$  bo'lsa noturg'un bo'ladi.

### Nazorat savollari

1. Surilmaning surilish chizig'i qanday aniqlanadi?
2. Surilish burchagi qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?
3. Tog' jinslarini zo'riqqanliginii aniqlash uchun qaysi ifodadan foydalaniladi?

## 2 - amaliy mashg'ulot. Sathlar turg'unligini gidroststik kuchlar ta'sirida bashoratlash

**2 - topshirik.** Yuqorida berilgan masala natijalaridan foydalanib, qiya sathning yarmi suv ostida qolib ketgan holati uchun qiya sath turg'unligi aniqlansin. (3 - rasm)



3 - rasm. Gidrostatik bosim ostidagi surilmani turg'unligini aniqlash chizmasi.

Bu masalani hal qilish uchun ajratilgan surilmaning suv sathi ostidagi vazni og'irligi hisoblanadi.

Buning uchun surilmaning suv ostida qolgan qismini vazn og'irligini aniqlashda tog' jinsini suv ostidagi zichligi ko'rsatkichidan foydalaniladi, yani,

$$\text{bunda: } \rho' = (\rho_d - 1)(1 - n)$$

$\rho'$  - tog' jinslarining suv ostidagi zichligi

$\rho_d$  - quruq holatdagi tog jinsi mineral zarrachalari zichligi ( $2,7 - 2,85 \text{ g/sm}^3$ ).

$n$  - tog' jinsi g'ovakligi

Gravitatsion bosim, suruvchi va ushlab turuvchi kuchlar surilishning surilish chizig'i suv ostida bo'lgan qismi, suv bosmagan qismi uchun alohida-alohida aniqlanadi. Ya'ni

$$G_1 = V_1 \cdot \rho^1$$

$$G_2 = V_2 \cdot \rho_s (1 + 0,01 W)$$

$$G_3 = V_3 \cdot \rho_s (I + 0,01 W)$$

Yuqorida aniqlanganlarni qiya sathlar muvozanati tenglamasiga qo'yib sath turg'unligi hisoblanadi

$$\eta = \frac{\sum f(N_1^1 + N^2) + CL}{\sum T_1^1 + T_2}$$

### Nazorat savollari

1. Surilmalarning turg'unligini bashoratlash usullari?
2. Sath turg'unligi qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?
3. Suruvchi kuch va ushlab turuvchi kuch nima?

### **3 - amaliy mashg'ulot. Sathlar turg'unligini seysmik kuchlar ta'sirida bashoratlash**

I - topshirikdag'i natijalardan foydalanib, surilma turg'unligi 8 balli zilzila ta'sir etgan holat uchun aniqlansin (4-rasm).

Aniqlangan surilmaning gravitatsion og'irligini seysmik to'lqin ta'sirida o'zgargan qiymati aniqlanadi, ya'ni,

$$G_s = G \sqrt{1 + K_s^2}, \text{ bunda,}$$

$G_s$  - seysmik to'lqin ta'sirida gravitatsion og'irligini o'zgargan qiymati


$K_s$  - seysmiklik koefitsiyenti,

$$K_s = \frac{a}{q}; \quad \text{bunda}$$

$a$  - seysmik to'lqin tezlanishi m/sek<sup>2</sup>

$q$  - erkin tushish tezlanishi 9,8 m/sek<sup>2</sup>

Surilmani seysmik to'lqin ta'sirida turg'unligini aniqlash uchun gravitatsion og'irlilik o'rniغا gravitatsion og'irlilik G va seysmik to'lqini ta'siridagi surilma og'irligining teng ta'sir etuvchisi R olinadi. (4 - rasm )



4 - rasm. Seysmik kuch ta'sirida surilma turg'unligini aniqlash chizmasi.  
 $\theta$  - burchak yoki R kuchning og'ish burchagi

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{G_s}{G} \text{ ga teng b o'ladi.}$$

Hisoblashlarning keyingi bosqichlarida  $\theta$  burchakni hisobga olish zarur, ya'ni

$$N = P \cdot \cos(\alpha + \theta)$$

$$T = P \cdot \sin(\alpha - \theta)$$

$$\eta = \frac{\sum fN + CL}{\sum T}$$

8 - ballik zilzilada seysmik to'lqin tezlanishi 250-500 mm /sm<sup>3</sup> ga teng.

1- jadval

Tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari va sathning morfometrik tafsiloti

Nº	Shurf tartib raqami	Tog' jinsining nomi	Namuna olingan chuquqrilik, m	Tog' jinsining hajm og'irligi	Tabiy namlik, W, %	G'ovaklik, n, %	Bog'lanish kuchi, C kg/sm <sup>2</sup>	Ichki Ishkatan bur.φ grad	Tog' yon bag'tir qiyalik	Sath balandligi, m
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	30	supes	2	1,63	4,30	42,0	0,22	23		
			4	1,59	6,22	43,7	0,23	22		
			6	1,61	7,34	42,9	0,22	21		

## 1-jadval davomi

			8	1.57	5,61	43.8	024	22	37	14
			10	1.64	9.42	44.0	0.23	24		
			12	1,58	7.55	43.3	0.24	23		
			14	1.66	8,16	41,4	0.23	22		
2	31	supes	2.0	1.63	4.30	42.0	0.22	23		
			4.0	1.59	6.22	43.7	0.20	21		
			6.0	1,61	7.34	42.9	0.22	23	35	14
			8.0	1,57	5.61	43.8	0.22	23		
			10,0	1,64	9.42	44.0	0.23	23		
			12,0	1,58	7.55	43.3	0.24	22		
			14,0	1,66	8,16	41,4	0.22	21		
3	35	supes	2,0	1,47	1,36	47.0	0,23	21		
			4,0	1,51	1,51	1,24	0,24	21		
			6,0	1,48	1,09	46,6	0,22	22		
			8,0	1,50	1,42	45,7	0,22	20		
			10,0	1,57	1,61	43,7	0,21	20		
			12,0	1,53	1,73	44,8	0,23	20	30	26
			14,0	1,56	2,55	46,1	0,24	21		
			16,0	1,55	2,17	45,2	0,22	23		
			18,0	1,54	2,81	45,3	0,24	23		
			20,0	1,55	3,26	46,1	0,23	22		
			22,0	1,58	2,94	45,3	0,23	22		
			24,0	1,61	2,11	47,7	0,21	20		
			26,0	1,64	2,56	46,2	0,24	21		
4	26	supes	2.0	1.39	2,66	52.8	0.44	24		
			4.0	1.29	3.65	53.7	0.23	23		
			6.0	1.38	6.33	52.0	0,23	21		
			8.0	1.29	3.44	53.7	0.21	23	51	36
			10.0	1.37	3.64	51.2	0.20	21		
			12,0	1.37	4.41	51.4	0.20	21		
			14,0	1,38	3.86	51.1	0.22	24		
			16,0	1,38	4.1	50.7	0.21	23		
			18,0	1,39	3.73	50.5	0.23	23		
			20,0	1,40	4.40	50.0	0.24	23		
			22,0	1,42	5.01	50.0	0.21	21		
5	32	supes	2.0	1.30	3.31	55.3	0.20	20		
			4.0	1.37	3.00	52.7	0.20	22		
			6.0	1.33	4.35	53.1	0.21	23		
			8.0	1.37	4.01	52.4	0.20	21		
			10.0	1.34	4.50	52.7	0.21	22		
			12,0	1,36	4.71	52.0	0.23	23		
			14,0	1.37	4.62	51.6	0.21	22		
			16,0	1.35	3.25	51.4	0.20	24	45	24
			18,0	1.37	2.85	52.0	9.22	24		
			20,0	1.37	3.54	52.5	0.21	23		
			22,0	1,39	4.56	51.4	0.24	22		
			24,0	1,38	3.55	51.1	0.23	21		
6	33	supes	1.0	1.36	3,15	52.0	0.24	23		
			2.0	1.38	4.50	52.0	0.23	22		

			3.0	1.37	4.80	52.3	0.22	23		
			4.0	1.39	4.61	52.0	0.24	24		
			5.0	1.39	3.41	52.7	0.24	22		
			6.0	1.40	4.47	52.5	0.21	22		
			7.0	1.41	4.98	51.2	0.23	22		
			8.0	1.39	4.45	51.4	0.26	24		
			9.0	1.42	6.81	50.3	0.24	21		
			10.0	1.39	4.53	50.7	0.22	21		
			11.0	1.40	3.28	50.7	0.22	23		
			12.0	1.42	4.56	50.3	0.22	23		
			13.0	1.40	3.58	50.7	0.23	23		
			14.0	1.43	4.38	50.0	0.23	24		
			15	1.40	5.78	50.7	0.22	24		
			16	1.41	5.71	52.2	0.21	23		
			17	1.42	4.18	52.2	0.20	22		
			18	1.43	6.25	51.8	0.21	22		
			19	1.42	6.65	51.6	0.21	22	35	26
			20	1.46	5.87	50.9	0.23	23		
			21	1.47	6.54	45.0	0.21	23		
			22	1.45	7.91	49.8	0.21	23		
			23	1.50	6.91	48.7	0.22	24		
			24	1.52	5.80	47.6	0.20	24		
			25	1.52	6.36j	46.4	0.21	21		
			26	1.53	6.70	46.1	0.24	24		
7	37	supes	2,0	1,41	1,24	51,8	0,24	22		
			4.0	1.40	4.70	50.1	0.24	23		
			6.0	1.38	6.24	51.1	0.23	23		
			8.0	1.42	6.63	50.7	0.22	21		
			10.0	1.42	5.34	50.3	0.26	22	33	22
			12.0	1.44	4,65	49.6	0.24	22		
			14.0	1.44	3.67.	50.0	0.23	26		
			18.0	1.42	4.10	49.6	0.20	24		
			20.0	1.46	5.75	49.0	0.21	22		
			22.0	1.47	4.40	48.5	0.24	23		
8	32	supes	2,0	1,36	2,31	50,92	0,24	22		
			4,0	1,35	3,12	52,0	0,26	24		
			6,0	1,44	6,03	49,81	0,23	24		
			8.0	1.44	4.97	51.29	0.24	23		
			10.0	1.46	6.12	51.1	0.25	22		
			12.0	1.47	6.77	50.3	0.23	22		
			14.0	1.45	5.67	50.5	0.24	24		
			18.0	1.48	5.88	50.0	0.27	21		
			18.0	1.48	6.24	49.4	0.24	21	45	31
			20.0	1.47	4.08	49.8	0.24	23		
			22.0	1.48	5.65	49.4	0.24	24		
			24.0	1.49	5.87	48.3	0.24	24		
			26.0	1.48	5.77	48.7	0.25	23		
			28.0	1.47	3.54	48.3	0.24	23		
			30.0	1.49	4.02	47.9	0.24	22		

1-jadval davomi

			31.0	1.49	4.89	47.5	0.24	22		
9	40	supes	2.0	1.34	2.94	53.8	0.24	21		
			4.0	1.36	2.92	53.5	0.26	24		
			6.0	1.38	3.42	53.1	0.24	22		
			8.0	1.41	5.41	52.5	0.24	22		
			10.0	1.40	5.62	52.5	0.26	23	45	30
			12.0	1.42	4.54	51.6	0.25	24		
			14.0	1.45	4.34	50.5	0.25	24		
			16.0	1.44	5.73	48.8	0.27	21		
			18.0	1.48	5.88	50.0	0.27	21		
			20.0	1.51	6.78	49.4	0.27	21		
			22.0	1.48	5.40	49.8	0.24	21		
			24.0	1.52	7.20	49.0	0.23	24		
			26.0	1.53	7.05	49.0	0.23	22		
			28.0	1.55	8.63	47.7	0.23	22		
			30.0	1.56	8.24	46.1	0.26	22		
10	45	supes	2.0	1.30	2.72	54.4	0.25	21		
			4.0	1.32	4.67	54.4	0.25	23		
			6.0	1.33	4.67	54.4	0.26	26		
			8.0	1.37	6.6	51.6	0.24	24		
			10.0	1.37		5.62	51.6	0.24		
			12.0	1.38		5.45	51.1	0.24		
			14.0	1.37		4.54	50.9	0.29		
			16.0	1.41		5.34	49.8	0.23		
			18.0	1.44		5.73	49.4	0.23		
			20.0	1.46		6.83	46.7	0.25	45	26
			22.0	1.50		49.4	0.25	21		
			24.0	1.50		48.3	0.24	21		
			26.0	1.52		47.9	0.25	21		
			22.0	1.50		5.65	49.4	0.25		
			24.0	1.50		6.87	48.3	0.24		
			26.0	1.52		7.54	47.9	0.25		

**Nazorat savollari**

1. Seysmik kuch nima?
2. Seysmiklik koefitsiyenti qanday aniqlanadi?
3. Surilmaning gravitatsion og'irligini seysmik to'lqin ta'sirida o'zgargan qiymati qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?

#### **4- amaliy mashg‘ulot. Qiya sathlar turg‘unligini grafo-analitik usul yordamida aniqlash.**

Bu usul yordamida bir sifatli tog‘ jinslaridan tashkil topgan qiya sathlar turg‘unligini aniqlash mumkin. Bunda surilmaning surilish yuzasi aylanma silindrik shaklga ega deb qabul qilinadi. Bu usul yordamida qiya sathlar turg‘unligini bashoratlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.


1. Qiya sathning topografik profili (ma’lum masshabda) chiziladi. Aniqlangan aylanish markazi "O" nuqtadan silindrik sath tkaziladi. Silindrik sath bilan ajratilgan tog‘ jinslari surilma deb qaralib uning turg‘unligi aniqlanadi.

2. Aylana markazi joylashgan chiziqni aniqlash uchun qiya sath, etagidagi (A nuqtadan) pastga er yuzasiga perpendikulyar ynalishda sath balandligiga teng masofa ajratiladi (5-rasm). Aniqlangan nuqtadan sath tomonga gorizontal chiziq o’tkaziladi va sath balandligini 4,5 ga ko‘paytirib aniqlangan masofa yotqiziladi va M nuqta bilan belgilanadi. Qiya sathning A va B nuqtalaridan ikkita yordamchi chiziq o’tkaziladi, buning uchun  $\beta_1$  va  $\beta_2$  burchaklari aniqlab olinadi (2-jadval). Bu burchaklarning qiymati qiya sath qiyaligiga bog‘liq ravishda jadval yordamida aniqlanadi.

2-jadval

Surilma yuzasi markazini aniqlash bo‘yicha ma’lumotlar

Sath, qiyaligi	Sath qiyalik burchagi	Yordamchi burchaklar	
		$\beta_1$	$\beta_2$
1:1	45° 00'	25°	37°
1: 15	33°41'	26°	35°
1:2	26°41'	25	35°
1:3	18°25'	25	35°
1:5	11°19'	28	37°



5- rasm Grafo- analitik usul bilan surilmaning surilish yuzasini aniqlash.

O'tkazilgan yordamchi chiziqlarning kesishish nuqtasi silindrik sath markazi deb qabul qilinadi va "O" deb belgilanadi AO kesma aylanma silindrik surilish yuzasining radiusiga teng bo'ladi. AO - I chizig'i bo'yicha kuzatilishi mumkin bo'lgan surilmalarning (aylanma silindrik surilish sathi) qiya satxda OA - I bilan ajratilgan tog jinsi massasi deb qaralib uning turg'unlik koefitsiyenti  $\eta$  aniqlanadi.

3. Aylanma silindrik sath bilan ajratilgan tog' jinsi massasi kengligi 0,1 R ga teng bo'lgan vertikal bloklarga ajratiladi va har bir blok uchun uning og'irligini, ushlab turuvchi va suruvchi tashkil etuvchi kuchlari aniqlanadi.

Ajratilgan xar bir blokning gravitatsion og'irligi

$$P_n = S_n \cdot \rho \cdot B$$

$P_n$  - n blokning gravitatsion og'irligi;

$S_n$  - ajratilgan blok yuzasi;

$B$  - blok kengligi, 1 m ga teng


$\rho$  - tog' jinsining tabiiy namlik holatidagi zichligi.

$\rho = \rho_s (1 + 0,01 W)$  Suruvchi kuch  $T_n = P_n \sin \alpha_n$ ; ushlab turuvchi kuch

$N_n = P_n \cos \alpha_n$  ga teng bo'ladi:

$\alpha_n$  - surilish yuzasini gorizontal bilan hosil qilgan burchagi

$\alpha_n$  - ning qiymati quyidagi chizma yordamida  
aniqlanadi. (6-rasm)



6 - rasm. Surilish yuzasining hosil qilgan surilish burchagini aniqlash chizmasi

$\alpha_n$ - burchak qiymatini aniqlash uchun har bir vertikal blokning og'irlilik markazi aniqlanadi va bu nuqtadan surilish sathiga vertikal chiziq tushiriladi. Ularni kesishgan nuqtasidan (F), aylanma silindrik sathga urunma o'tkaziladi. Urunmani gorizontal sath bilan xosil qilingan burchagi shu vertikal blokning surilish burchagiga teng bo'лади.

$$Ya'ni \sin \alpha_n = \frac{X_n}{R}; \text{ bunda}$$


$X_n$ - vertikal yo'nalishda o'tkazilgan radius hamda F nuqta orasidagi masofa. Surilish yuzasining umumiy uzunligi

$$L = \frac{\pi R}{180} \omega,$$

bunda,  $\omega$  - markaziy burchakka teng blidi (6 - rasm).

Barcha ko'rsatkichlar aniqlangandan so'ng olingen ma'lumotlar qiya sath muvozanati tenglamasiga, turg'unlik koeffitsiyentini aniqlash ifodasiga qo'yiladi. Bunda ajratilgan bloklarning O nuqtadan o'tkazilgan vertikal o'qga nisbatan joylashishiga e'tibor qaratiladi(7 - rasm).

Vertikal o'qdan o'ng tomonda joylashgan bloklarning gravitatsion og'irligi ajratilgan surilmani surishga, chap tomonda joylashgan bloklarning gravitatsion og'irligi surilmalarni surilishiga qarshilik ko'rsatadi. Surilishga qarshilik ko'rsatuvchi bloklarning gravitatsion og'irligi manfiy belgi bilan ifodalanadi.



7 - rasm Turg'unlik koeffitsiyentini aylanma silindrik sath radiusi o'rni bog'liqligi chizmasi.

$\eta = 1$  ga teng holat kuzatilgan nuqta o'rni chizmadan aniqlab, muvozanat holatidagi sath o'tkaziladi.

Topshiriqni bajarishda zarur bo'lgan ma'lumotlar 1- jadvalda keltirilgan Hisoblashlarda tog' jinslarining o'rtacha arifmetik qiymatlaridan foydalaniлади.

### Nazorat savollari

1. Qurilish maydonini tanlashda qiya sathlar turgunligini bashoratlash.
2. Surilish yuzasining umumiyligi uzunligi qanday aniqlanadi
3. Har bir blokning gravitatsion og'irligini aniqlang.

## 5 - amaliy mashg'ulot. Qiya sathlar turg'unligini VNIMI usuli bilan hisoblash.

Bu usul G.L.Fisenko tomonidan Butun ittifoq "Tog' mexanikasi va marksheyderlik ishi" ilmiy tadqiqot institutida ishlab chiqilgan.

Bu usul zarrachalari bog'lanmagan tog' jinslarini chegaraviy muvozanat nazariyasiga asoslangan.

1. Bir sifatli tog' jinslaridan tashkil topgan yarim silindrik shaklga ega bo'lgan yuza bo'ylab bir sifatli tog' jinslaridan tashkil topgan qiya sathlarda surilish vertikal zo'riqish ma'lum qiyomatga yetganda yuz beradi, surilish yuzasiga nisbatan  $(45^\circ - \frac{\varphi}{\alpha})$  ga teng burchak ostida yo'nalgan bo'ladi.

$$\sigma_1 = ctg(45^\circ - \frac{\varphi}{\alpha})$$

2. Qiya sathning yuqori qismidan ma'lum masofada, bosh zo'riqish vertikal yo'nalishga ega bo'ladi va ma'lum chuqurlikda yarim silindrik shaklga o'tadi.

3. Bosh zo'riqish yo'nalishi vertikalga nisbatan  $(45^\circ + \frac{\varphi}{\alpha})$  burchakdan to qiya sath bilan  $(45^\circ - \frac{\varphi}{\alpha})$  burchak hosil qilguncha o'zgaradi

4. Bir sifatli tog' jinslarida surilish  $H_{90}$  chuqurlikdan boshlab yuz beradi:

$$H_{90} = \frac{\sigma_1}{\rho} = \frac{2C}{\rho} \cdot ctg(45^\circ - \frac{\varphi}{\alpha})$$

Yuqorida keltirilgan nizomlar asosida hisoblash quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

1. prizma kengligi " $a$ " (7-rasm) quyidagicha hisoblanadi.

$$AB = a \cdot \frac{2H \left[ 1 - ctg \alpha \cdot tg \left( \frac{\alpha + \varphi}{2} \right) \right] - 2H_{90}}{ctg \left( 45^\circ - \frac{\varphi}{\alpha} \right) + tg \left( \frac{\alpha + \varphi}{2} \right)}$$

bunda:  $H$  - qiya sath balandligi;

$\alpha$  - sath qiyaligi

$\varphi$  - ichki ishqalanish burchagi.

Bu ko'rsatkich  $H_{90}$  maxsus grafik orqali ham hisoblanishi mumkin.

2. Qiya sathning yuqori qismidan  $\alpha = AB$  surilish prizmasi kengligi ajratiladi. (8-rasm).

3. A va B nuqtalaridan pastga, vertikal yo'nalishda surilish boshlanish chuqurligi  $H_{90}$ , yotqiziladi va  $A^1$  va  $B^1$  nuqtalari belgilanadi.


4. A<sup>1</sup> va B<sup>1</sup> nuqtalaridan (450- $\frac{\alpha}{2}$ ) burchak ostida chiziq o'tkaziladi va C nuqta aniqlanadi.

5. C nuqta bilan M nuqta birlashtiriladi, hosil bo'lgan CM chizig'idan  $(45^\circ - \frac{\Phi}{a})$  burchak ostida MN chizig'i o'tkaziladi. Hosil bo'lgan MN chizig'iga perpendikulyar chiziq o'tkaziladi va O nuqta o'rni aniqlanadi. O nuqta perpendikulyarlarni kesishish nuqtasiga joylashadi. OM ga teng radius ostida surilmaning yarim silindrik shaklga ega bo'lgan surilish chizig'i o'tkaziladi.

6. Hosil bo'lgan surilmaning vertikal bloklarga bo'lib tog' jinslari og'irligi, suruvchi va ushlab turuvchi kuchlar aniqlanadi. Chegaraviy muvozanat tenglamasidan foydalanib qiya sath turg'unligi aniqlanadi.

$$\dot{\eta} = \frac{\sum f N_i + CL_i}{\sum T_i}$$

7. Agar qiya sathga nisbatan mustahkam bo'lmagan ( $\varphi < 13^0$ ) tog' jinslari tarqalgan bo'lsa surilish qiya sath etagidan ma'lum masofada yuz berishi mumkin, bunda hisoblash uchun  $M_1$  nuqta olinadi.



8-rasm. VNIMI usuli bilan surilish yuzasini qurish.

Nazorat savollari

1. VNIMI usul qaysi tog' jinslari uchun o'tkaziladi?
  2. Qiya satxlar turg'unligini VNIMI usuli bilan bashoratlash.
  3. Qiya sath turg'unligi aniqlang.

## **6 – amaliy mashg‘ulot. Suv omborlari qirg‘oqlarining yemirilishini bashorat qilish (Zolotarev usuli)**

Suniy suv omborlari qirg‘oqlarning yemirilishini bashoratlash masalalarini birinchi bo‘lib F.P.Savarenskiy (1935 yil) Dneprpetrovsk gidroelektro stansiyasi qurilishi munosabati bilan ko‘tarib chiqdi. Keyinchalik bu masalalar bilan E.G.Kachugin, G.S.Zolotarev, B.A. Pishkin, N.E.Kondratyev va boshqalar shug‘ullandilar. Natijada hozirgi kunga kelib bashoratlarning ko‘p usullari ishlab chiqildi.

Bu usullar ichida eng yaxshi natija beradiganlari G.S.Zolotarev, E.K.Grechshsev, E.G.Kachugin, D.N.Rash, L.B.Rozovskiy va ba’zi boshqa usullar hisoblanadi. Mazkur uslubiy qo‘llanmada suv omborlari qirg‘oqlarning yemirilishini G.S.Zolotarev va E.G. Kachugin usullari bo‘yicha bashoratlashni ko‘rib chiqamiz.

G.S.Zolotarev bu usul suv omborlarining qirg‘oqlarini 10 yillik muddat ichida yemirilishidan hosil bo‘lgan hamda yemirilishning so‘nggan davri uchun qirg‘oq profilini chizishga imkon beradi. Qirg‘oq yuvilishini bu usulda bashorat qilish uchun quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish talab qilinadi:

- a) qirg‘oqning topografik profili (1:2000, 1:10000 masshtabda);
- b) suv omboridagi suv sathining o‘zgarishi;
- v) suv omboridagi suv to‘lqinlarining o‘lchamlari va shamolning tezligi;
- g) qirg‘oqning geologo-litologik tuzilishi: qirg‘oq turi va to‘lqin ta’sirida hosil bo‘lgan maydon tafsiloti;
- d) tog‘ jinslarining namlanganlik darajasi, geodinamik jarayonlarning rivojlanganligi.

### **10 yil muddatdan so‘ng hosil bo‘lgan suv ombori qirg‘og‘i profilini bashorat qilish**

1. Qirg‘oq bo‘yicha 5-jadvalda berilgan ma’lumotlardan foydalanih, uning topografik profili chiziladi. Profilda qirg‘oqning geologo-litologik tuzilishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, profilda me’yoriy suv sathi (NPG) o‘tkaziladi (9-rasm).

2. NPG chizig‘i yuqorisidan to‘lqin harakati balandligi ( $h_m$ ) o‘lchanib chiziq o‘tkaziladi. To‘lqin harakati balandligi ( $h_m$ ) N.I.Djunkovskiy taklif etgan ifoda yordamida aniqlanadi.

$$h_m = 3,2 \text{ } Kh_{gtga} \quad \text{bunda,}$$

$h_m$  - to'lqin harakati balandligi, m.

K - to'lqin ta'sir etuvchi qirg'oq notekisligi koeffitsiyenti,

$h_g$  - to'lqin balandligi, m.

$\alpha$  - suv to'lqin natijasida qirg'oqda hosil bo'lgan ariqcha qiyaligi.

Taxminiy hisob-kitoblar uchun to'lqin harakati balandligi shag'al toshlardan tashkil topgan qirg'oq uchun  $0.5 h_B$  qumlardan tashkil topgan qirg'oqlar uchun  $-0.3 h_B$  deb olish mumkin.

3. NPG chizig'idan pastga engil yemiriluvchan lyossimon tog' jinslari uchun  $1.5 h_m$  juda engil yemiriluvchan lyoss tog' jinslari uchun  $2.0 h_B$  o'lchab NPG ga parallel chiziq chiziladi. Bu nuqtadan pastda tog' jinslarining yemirilishi kuzatilmaydi, balki emirilgan tog' jinslarining yig'ilishi kuzatiladi va bu chiziq yemirilish chizig'i deb ataladi.

4. Yemirilish chizig'i ustida istalgan erda A nuqta tanlab olinadi. Bu nuqtada hosil bo'ladiyan akkumulyativ suv osti qirg'og'i sathida qiyalikni o'zgarishi kuzatiladi. Bu nuqtada ikki chiziq akkumulyativ qirg'oq yuzasi va akkumulyatka qirg'oq qiya sathi tkaziladi. Akkumulyativ qiya sath  $\alpha_4$ , burchak ostida o'tkazilib uning suv ombori tubi bilan kesishgan nuqtasi "D" deb belgilanadi.  $\alpha_4$  burchak qum-gilli tog' jinslari uchun  $10-12^\circ$ , yirik qum, shag'al toshli tog' jinslari uchun  $18-22^\circ$  deb olinadi.

Akkumulyativ qirg'oq sathi esa  $\alpha_1$  burchakda qirg'oq tomonda qarab o'tkaziladi. Akkumulyativ qirg'oq sathi bilan tabiiy qirg'oq kesishish nuqtasi "B" deb belgilab olinadi.

$\alpha_1$  burchakniig qiymati maxsus jadvalda (3-jadval) berilgan. Hosil bo'lgan tabiiy qirg'oq va DAB chizig'i bilan chegaralangan yuzani  $F_1$  deb belgilanadi.  $F_1$  - kengligi 1 m bo'lgan qirg'oqdan yemirilib akkumulyasiyalangan tog' jinslari hajmiga teng bo'ladi. Akkumulyativ va tabiiy qirg'oq kesishish nuqtasi "B" dan  $\alpha_2$  burchak ostida abraziv qirg'oq sathi o'tkaziladi. Bu chiziqning NPG chizig'i bilan kesishish nuqtasi "C" deb belgilanib olinib, shu nuqtadan to'lqin ta'siri maydoni sathi o'tkaziladi. Bu satx  $\alpha_3$  burchak ostida  $h_m$  chizig'i bilan kesishguncha davom ettiriladi. To'lqin harakati ta'siri zonasini chegarasini aniqlash uchun NPG chizig'i ustiga  $h_m=0,3:0,5 h_B$  qiymati qo'yiladi va NPG chizig'iga parallel chiziq o'tkaziladi va  $\alpha_1, \alpha_2$  burchaklarning miqdori kabi maxsus jadvalda berilgan. (3-jadval).


Qirg'oqning suvdan yuqori qismi profilini chizish quydagicha amalga oshiriladi qirg'oqni  $1/3 - 1/4$  qismigacha  $30-33^\circ$  burchak ostida chiziq o'tkaziladi va "E" bilan belgilanadi. "E" nuqtadan to er satxigacha  $60-70^\circ$  burchak ostida chiziq o'tkaziladi va N bilan belgilanadi. Hosil bo'lgan

yuza bir metr kenglikdagi yemirilishga uchragan tog' jinsi hajmiga teng bo'ladi, ya'ni  $F_2$  ga teng bo'ladi.

O'tkazilgan bashorat ishlarini to'g'ri xatoligini tekshirish uchun tog' jinslari akkumulyatsiyasini yemirilgan tog' jinslari miqdoriga nisbati  $F_1/F_2$  hisoblanib akkumulyatsiya koeffitsiyenti "a" aniqlanadi va maxsus jadvalda (3-jadval) berilgan qiymat bilan solishtiriladi.

Agar hisoblangan akkumulyatsiya koeffitsiyenti jadvaldagagi qiyamatga teng bo'lsa yoki 5 % gacha farq qilsa, u holda bajarilgan bashorat to'g'ri deb hisoblanadi, aks holda hamma o'tkazilgan ish qaytadan bajariladi.

Agar hisoblangan akkumulyatsiya koeffitsiyenti jadvaldagidan katta chiqsa A nuqta qirg'oq tomonga qarab ko'chiriladi, aks holda suv tomonga suriladi. Bashoratlanuvchi profilni qayta qurish akkumulyatsiya koeffitsiyenti miqdori jadvalda berilgan qiymatga teng bo'lgunga qadar qayta-qayta bajariladi.



9-rasm Qirg'oq'i profilini 10 yil muddatdan keyingi profili.

### **Yemirilishning so'nggi davri uchun qirg'oq profilini bashorat qilish**

Yemirilishning so'nggi davri uchun qirg'oq profilini bashoratlash xuddi o'n yildagi kabi bajariladi, quyida faqat bashoratlash profilini chizishdagi farqlarni ko'rib chiqamiz.


1. Topografik profilda NPG chiziqdandan tashqari NGS /suv kam yillardagi suv sathining eng pastki holati/ yuzasini ko'rsatuvchi chiziq o'tkaziladi (10 -rasm).

2. Yuvilish chizig'i qumlar uchun  $2h_B$  ga. gil zarrachalari tog' jinslari uchun  $3 h_B$  deb qabul qilinadi. A nuqta o'mmini tanlash xuddi oldingidek bajariladi.

3. Suv to'lqini harakati zonasasi balandligi  $h_m$  oldingidek aniqlanadi.
4.  $\alpha_1, \alpha_2$  va  $\alpha_3$  burchaklar birmuncha kichik bo'lib  $\alpha_1^1, \alpha_2^1$  va  $\alpha_3^1$  ga teng deb olinadi.(3-jadval)
